



BEGONALASHUV FENOMENINING DIALEKTIK DINAMIKASI: KONSEPTUAL, PSIXOLOGIK VA IJTIMOIIY TAHLIL

*Sapayev Valisher Odilbek o'g'li –
Ma'mun universiteti dotsenti
sapayev.vali.2017@gmail.com*

Annotatsiya Begonalashuv, o'z mohiyatiga ko'ra, faqat tashqi ijtimoiy bosimlar mahsuli emas, balki inson tafakkurining ichki ziddiyatlari va ontologik yo'qotishlaridan paydo bo'lgan ko'p qatlamli hodisadir. U o'zida ijtimoiy tizimlar, shaxs ongining ongli va ongsiz shakllanishi, shuningdek, tarixiy-iqtisodiy sharoitlar bilan o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. Shu sababli, maqola begonalashuv fenomenini nafaqat nazariy, balki empirik va tarixiy asosda chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Begonalashuv, dialektik dinamika, refleksiv ong, bostirish mexanizmi, metafizik yondashuv, materialistik yondashuv, psixologik yondashuv, sotsiologik tahlil, teologik talqin, ijtimoiy struktura, individual ong va mohiyat, tarixiy-iqtisodiy kontekst.

Abstract Alienation, in its essence, is not merely the result of external social pressures, but a multilayered phenomenon arising from the inner contradictions of human thought and ontological losses. It reflects the interconnection between social systems, the conscious and unconscious formation of individual consciousness, and historical-economic conditions. Therefore, this article aims to analyze the phenomenon of alienation not only from a theoretical perspective but also through empirical and historical foundations.

Keywords: Alienation, dialectical dynamics, reflexive consciousness, repression mechanism, metaphysical approach, materialist approach, psychological approach, sociological analysis, theological interpretation, social structure, individual consciousness and essence, historical-economic context.

Аннотация Отчуждение по своей сути представляет собой не просто результат внешнего социального давления, но многослойное явление, возникающее из внутренних противоречий человеческого мышления и онтологических потерь. Оно отражает взаимосвязь социальных систем, сознательного и бессознательного формирования индивидуального сознания, а также историко-экономических условий. В связи с этим статья направлена на глубокий анализ феномена отчуждения не только с теоретической, но и с эмпирической и исторической точек зрения.

Ключевые слова: отчуждение, диалектическая динамика, рефлексивное сознание, механизм вытеснения, метафизический подход, материалистический подход,

психологический подход, социологический анализ, теологическая интерпретация, социальная структура, индивидуальное сознание и сущность, историко-экономический контекст.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda shakllangan ma’rifiy an’analari shaxs va uning ongini belgilovchi ijtimoiy tamoyillarni yangitdan ko‘rib chiqishga undamoqda. Shaxsning o‘z mental olami va tashqi ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ziddiyatlar esa real voqelikning siljishiga olib keladi. Aynan shu ziddiyatlar negizida begonalashuv fenomeni shakllanadi. Ushbu hodisa zamonaviylik bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasa-da, kapitalistik munosabatlar kontekstida insonning o‘z mehnati, jamiyat va o‘zligiga nisbatan begonalashuviga sabab bo‘lmoqda.

Begonalashuv konsepsiyasi falsafiy, psixologik, sotsiologik va teologik jihatdan turli talqinlarga ega bo‘lib, u individual va ijtimoiy o‘zgarishlarning dialektik harakati bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu maqolada begonalashuv hodisasi aynan ana shu dialektik dinamikasi orqali tahlil qilinadi. Markaziy e’tibor “refleksiv ong” va “bostirish mexanizmlari”ga qaratilib, begonalashuvning ko‘p qatlamli sabablari ochib beriladi.

Begonalashuv (alienation) tushunchasi etimologik jihatdan qadimiy lotincha “alienare” so‘ziga borib taqaladi. Ushbu so‘z aslida “boshqalashtirish”, “uzoqroqlashtirish” ma’nolarini anglatib, o‘zining semantik ildizlarida hatto “ruhiy kasallik” (mental disorder) kabi ma’noga yaqin bo‘lgan holatni ham ifoda etadi [1]. Bu esa mazkur hodisaning nafaqat sotsiologik yoki ijtimoiy, balki chuqur psixologik ildizlarga egaligini ko‘rsatadi.

Begonalashuv g‘oyasi qadimgi Ioniya falsafasidan boshlangan bo‘lib, XVIII asrgacha u odatda “metafizik nuqtai nazardan izohlanib kelgan” [2]. Ammo ma’rifatchilik davri bilan bu tushuncha yangi falsafiy tus oldi — uni ilk bor falsafiy maydonga Hegel, siyosiy maydonga esa Russo olib kirdi [3]. Hegel begonalashuvni ruhning o‘zidan ajralishi, boshqacha aytganda, individuallik va umumiylik o‘rtasidagi dialektik qarama-qarshilik sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Russo ushbu holatni ijtimoiy tengsizlik va tabiiy holatning buzilishi bilan bog‘lagan.

Har necha xil tahlillarda begonalashuv ko‘proq psixologik muammo sifatida ilgari surilgan bo‘lsa-da, bu fenomenni to‘liq tushunish uchun uni falsafiy, diniy, sotsiologik, texnologik, tarixiy, siyosiy va iqtisodiy kontekstda tahlil qilish zarur. Shuning uchun ham olimlar va faylasuflar begonalashuvni o‘zlarining nazariy yondashuvlariga binoan turlicha talqin qiladilar [4]. Ayniqsa, dialektik yondashuv bu tushunchaning doimiy harakatda, dinamik shakllanishda ekanligini ochib beradi. Begonalashuv inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab, o‘zgaruvchan, ba’zida esa qarama-qarshi bo‘lgan aloqalarning falsafiy-psixologik ko‘zgusidir.

Begonalashuv diniy sohada insonning o‘zi yaratgan butlarga ko‘r-ko‘rona bog‘lanib qolishi va o‘zini qulga aylantirishi ma’nosini anglatadi [5]. Begonalashuvning diniy ko‘rinishi shundaki, inson o‘z aqliy mahsulini mutlaq haqiqat sifatida qabul qiladi. Bu holat shaxsning ichki erkinligini yo‘qotishiga, o‘z yaratuvchisiga emas, yaratilgan timsollarga sig‘inishiga olib keladi.

Gabriel Marselning fikricha, begonalashuv – “insonning dunyoni boshqarishga bo‘lgan his-tuyg‘ularining kuchayishi natijasida faqat foydali bo‘lishdan boshqa ma’nosi bo‘lmagan narsalarga e’tibor qaratishi hamda o‘zini yo‘qotishdan qutulish uchun itarish, sevish va Xudoga ishonishni tavsiya etadi” [6]. Marselga ko‘ra, begonalashuv insonning texnikaviylik va utilitarizmga haddan tashqari berilib ketishi natijasida yuzaga keladi. Bu holat shaxsni ichki mavjudligidan uzoqlashtiradi va uni ruhiy bo‘shliq sari yetaklaydi. Shu sababli Marsel insonning haqiqiy mavjudot sifatida o‘zini anglashi uchun mehr, ishonch va imon orqali ichki tiklanishga erishishini zarur deb hisoblaydi. Bu esa shaxsning mavjudlik ma’nosini qayta kashf etishiga xizmat qiladi.

Yana bir yondashuvga ko‘ra, begonalashuv ruhning yaxlitligini saqlay olmasligi, o‘zligini "Mutlaq"ka ko‘taradigan narsalarga emas, balki parchalovchi obyektlarga yo‘nalishidir. U Mutlaq bilan dunyo o‘rtasidagi muvozanatni o‘rnata olmaslik jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi [7].

Metafizik ma’noda Gegelga ko‘ra begonalashuv Mutlaq Ruhning o‘zini namoyon qilgan tabiatning, o‘zidan tashqaridagi mavjudot emasligini anglash jarayonidagi yanglishishdir. Aslida, Gegelga ko‘ra, tabiat deb ataladigan narsa Mutlaq Ruhning o‘zini tashqariga chiqarish orqali namoyon etgan tabiatdir. Bu Mutlaq Ruhning o‘ziga begonalashuvidir. Keyinchalik dialektik jarayon doirasida Mutlaq Ruhning keyingi harakati begonalashuvdan xalos bo‘lish, ya’ni Mutlaq Ruhning tabiat o‘zidan tashqarida mavjud emasligini anglash jarayonidir. Tarixning subyekti sifatida Xudoni (Mutlaq Ruhni) ko‘rib chiqqan Gegel, Xudoning parchalanishi va o‘ziga qaytish jarayonini inson faoliyatlarida tasvirlaydi. Gegelning bu o‘xshash yondashuviga ko‘ra, inson o‘zining ongli maqsadi va individual intilishlari bilan boshqariladi, o‘zini jismoniy obyektlar, ijtimoiy institutlar va madaniy mahsulotlar orqali tashqi olamga chiqaradi, begonalashadi va keyinchalik Xudoni sevish va unga sig‘inish orqali Xudoning o‘zini bilish jarayonining bir qismi sifatida begonalashuvdan xalos bo‘ladi. Insonni Xudoning vakili qiladigan narsa aqlning hiylasidir. Gegel falsafasida tarix “Xudoning o‘ziga qaytish jarayonidir. Tarixiy jarayonda ham shaxs va uning ongi Xudo iplarini tortib turgan qo‘g‘irchoqdan boshqa narsa emas” [8]. Gegelning bu yondashuvi tarixni sof dialektik ruhda talqin qilishga asoslanadi. Uning nazarida, inson erkinligi Xudoning aqlga aylangan rejasining amalda ro‘yobga chiqishidir. Bu holatda shaxsiy ong va harakatlar, aslida, Absolyut Ruhning o‘zini anglashi yo‘lidagi vositalarga aylanadi. Tarixiy taraqqiyot esa inson erkinligining bosqichma-bosqich ochilishi va Xudoning o‘z mohiyatiga yetib borish yo‘lidir. Shu nuqtai nazardan, inson voqelikda faol ishtirok etsada, u ilohiy rejaning ijrochisidir. Gegel yondashuvida begonalashuv – “subyekt va yaratilgan obyekt o‘rtasidagi chegaraning yo‘qolishi va obyektga nisbatan ongning to‘liq shakllanishini anglatadi” [9]. L.Feyerbaxda Xudo insonning begonalashgan mohiyati bo‘lib, u insonni o‘zidan tashqariga chiqaradi va unga mutlaq xususiyat beradi” [10] deb hisoblaydi. Gegel nazariyasida begonalashuv – bu subyektiv ongning obyektiv shaklga ko‘chishi orqali o‘z mohiyatini o‘zidan ajratib qo‘yishidir. Bu jarayon dialektik taraqqiyot bosqichidir, ya’ni ong obyektivlashib, so‘ngra o‘ziga qaytadi va yakunda

absolyut birlikka erishadi. Feyerbax esa bu tushunchani antropologik darajada qayta talqin qiladi: u Xudoni inson ongining begonalashgan proyeksiyasi sifatida ko‘radi. Ya’ni inson o‘zining ideal sifatlarini mutlaq kuchga – Xudoga yuklaydi va shu orqali o‘z mohiyatidan ajraladi. Feyerbax uchun diniy begonalashuv – insonning o‘z kuchi va mohiyatini o‘zidan tashqariga ko‘chirib, unga sig‘inish holatidir. Bu yondashuvlar har ikkisi ham begonalashuvni tushunishda ong va mohiyat o‘rtasidagi ziddiyatga asoslanadi, biroq biri uni dialektik jarayon deb ko‘rsa, ikkinchisi uni tanqidiy-antropologik nuqtai nazardan baholaydi.

Marks Feyerbaxning bu ta’rifiga muvofiq begonalashuvni “xususiy mulkchilik, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv xususiyatlarining asosini tashkil etadigan ishlab chiqarish munosabatlari, mehnatning mehnatga begonalashuvi, mehnat-kuch tengsizligi sharoitida ishchining ishlab chiqarish jarayonida ichki holatiga aylanishi” deb qaraydi. Bunda ishchining o‘zi ishlab chiqargan mahsulotga nisbatan tobe holatga tushishi, uni boshqaradigan va qashshoqlashtiradigan kuchga aylanishi, o‘z tabiatini, his-tuyg‘ularini, o‘zligini yo‘qotishiga sabab bo‘ladigan tuzilmaga begonalashuvi sifatida ta’riflanadi. Kapitalistik jarayonda ishchilar ishlab chiqaruvchi emas, balki kapitalistning mulkiga nisbatan har bir kishi begonalashadi. Chunki kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari insonni nafaqat tovar sifatida, balki o‘z qadriyatlaridan mahrum bo‘lgan mavjudot sifatida ham vujudga keltiradi” [11]. Marksning begonalashuv haqidagi ta’rifi iqtisodiy asosga tayanadi. Unga ko‘ra, kapitalistik jamiyatda ishchi o‘z mehnatining mahsulidan ajraladi va bu mahsulot unga qarshi mustaqil kuchga aylanadi. Ishchi o‘z mehnatini boshqara olmaydi, balki mehnat jarayonida o‘zini yo‘qotadi. Xususiy mulk, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv natijasida ishchi o‘z tabiatidan, insoniy mohiyatidan uzoqlashadi. Ishlab chiqarish kuchlari ustidan nazoratning kapitalistga o‘tishi esa ishchini jamiyatdagi o‘z o‘rnidan begonalashtiradi. Natijada inson o‘z mehnati, qadriyati va mavjudligini yo‘qotadi.

Begonalashuv asosan individual psixologik jarayondir. Frommning fikriga ko‘ra, “keng ma’noda har bir nevroz begonalashuv jarayonining natijasi sifatida qaralishi mumkin. Chunki nevroz ehtirosning shaxsdan ajralib, butunlay shaxsning qolgan qismini belgilashi, hukmronlik qilishini anglatadi. Shu sababli, ushbu ehtiros kuchaygan sari shaxs zaiflashadi, o‘z qismining quliga aylanadi va to‘liq va yaxlit mavjudot sifatida o‘z mavjudligini to‘ymasdan yo‘qotadi”[12]. Frommning ta’rificha, begonalashuv individual psixologik muammo sifatida insonning o‘z his-tuyg‘ulari va ehtiroslariga nisbatan nazoratni yo‘qotishi bilan bog‘liq. Har bir nevroz aslida begonalashuvning natijasidir, chunki ehtiroslar shaxsdan ajralib, uning ustidan hukmronlik qiladi. Bu holat shaxsning yaxlitligini buzadi, uni ichki qarama-qarshilikka olib keladi. Ehtiros kuchaygan sayin, inson o‘z tabiatidan begonalashadi va o‘zini anglash qobiliyatini yo‘qotadi. Shu tariqa shaxs o‘zining mavjudlik mohiyatidan uzoqlashadi va ruhiy jihatdan parchalanadi. Boshqacha aytganda, begonalashuv shaxsiyatning parchalanishi va o‘ziga xoslikni yo‘qotish jarayoni hisoblanadi. Shaxsga va shaxsning ichki dunyosiga bunday yondashuv kapitalizm va ehtirosni qo‘zg‘atuvchi zamonaviy hayotning istalgan yo‘nalishidan

tashqari, har qanday davr va tizimda amal qilishi mumkin bo‘lgan shaxsiy maqsadlarini aks ettiradi.

Ko‘plab konseptual, psixologik, falsafiy va sotsiologik nuqtayi nazarlar orqali ko‘rib chiqilgan begonalashuv hodisalari chuqur ildiz otgan va murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Begonalashuv shunchaki nazariy mavhumlikdan ustun turadi, u hozirgi zamon insoniyat tajribasida moddiy voqelik sifatida namoyon bo‘ladi, shaxsiy o‘ziga xoslikning parchalanishi, ijtimoiy munosabatlarning buzilishi, ishlab chiqarish va ma‘naviy mohiyatdan uzilish bilan tavsiflanadi. Ushbu maqolaning dialektik yondashuvi begonalashuv turg‘un va bir tomonlama emas, balki subyekt va obyekt, shaxs va jamiyat, ichki "men" va tashqi jarayonlar o‘rtasidagi ziddiyatlar natijasida yuzaga kelishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, begonalashuvning kelib chiqishi zamonaviylikdan oldingi tafakkurda, ayniqsa Ioniya va nemis klassik falsafasida, xususan, Gegel dialektikasida va Feyerbaxning antropologik tanqidida metafizik talqinlarga borib taqaladi. Keyinchalik Karl Marks tomonidan jonlantirilgan bu tushunchalar kapitalistik ishlab chiqarishning iqtisodiy aloqalarida begonalashuvni ifodalaydi. Marks ilgari mavhum bo‘lgan narsalarga sinfiy munosabatlar, mehnatni begonalashtirish va g‘ayriinsoniylashtirish g‘oyasini kengaytirish orqali aniq va tizimli asos yaratdi.

Erix Frommning begonalashuvni zamonaviy nevrozlarning fundamental kelib chiqishi sifatida psixologik baholash tug‘ma impulslar va jamiyatning insonga qo‘ygan talablari o‘rtasidagi ichki kurashni ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, begonalashuv ham ijtimoiy illat, ham individual parchalanishning klinik ko‘rinishidir.

Gabriel Marsel kabi faylasuflar haqiqiy aloqalar, sevgi va transsendentlikka bo‘lgan ishonch begonalashuvni yengillashtirishga yordam berishi mumkinligini ta’kidlab, qutqaruvchi muqobil variantni taqdim etadilar. Bu ko‘plab qarashlar begonalashuvning ham siyosiy, ham psixologik, ham ichki, ham tashqi, ham moddiy, ham ma‘naviy ekanligini ta’kidlaydi.

Ushbu tadqiqotda begonalashuvni tushunish uchun falsafiy mushohada, psixologik idrok va ijtimoiy-iqtisodiy tahlilni uyg‘unlashtirish zarurligi ta’kidlanadi. Bu begonalashuvning dialektik xarakterining butun spektrini - uning ildizlarini, ifodalarini va uni bartaraf etishning mumkin bo‘lgan usullarini tushunishga imkon beradi. Binobarin, begonalashuv zamonaviy o‘zlik, axloq, mehnat va jamiyat muammolarini ilg‘ab olishning asosiy tahliliy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Begonalashuvning psixologik va tuzilmaviy jihatlari bilan har tomonlama va tahliliy shug‘ullanish bizga insonning o‘sishi va jamiyatni tashkil etishning yanada yaxlit va ozod qiluvchi g‘oyalarini tasavvur qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фромм Э. НОВЫЙ человек — новое общество / пер. с англ. Н. Арат. — Стамбул: Onur Matbaası, 1984. — С. 66.
2. Fromm, E. The Sane Society. — New York: Holt, Rinehart and Winston, 1955.

3. Kılıç, S. Yabancılaşma: İnsana Karşı Toplumsal Süreç. — İstanbul: Fatih Yayıncılık Matbaası, 1984. — С. 14.
4. Kılıç, S. Yabancılaşma: İnsana Karşı Toplumsal Süreç. — İstanbul: Fatih Yayıncılık Matbaası, 1984. — С. 14; Özel, İ. [Электронный ресурс] — Режим доступа: <http://www.yolcuzaade.com/makaleler/m-ismetozel.htm>
5. Tolan, B. Çağdaş Toplumun Bunalımı, Anomi ve Yabancılaşma. — Ankara: Kalite Matbaası (AİTİA), 1980. — 143 с.
6. Bayat, B. Çimento ve Otomotiv Sektörlerinde Çalışan İşçiler Arasında Yabancılaşmanın Karşılaştırmalı Olarak Araştırılması: дис. ... д-ра социол. наук. — Анкара: Гази Университети, SBE, 1996. — С. 41.
7. Kılıç, S. Yabancılaşma: İnsana Karşı Toplumsal Süreç. — İstanbul: Fatih Yayınevi Matbaası, 1984. — С. 115–116.
8. Фромм Э. Революция надежды / пер. с англ. Ш. Йегин. — Стамбул: Payel Yayımları, 1991. — С. 56–120.
9. Weisskopf, W. A. Yabancılaşma ve İktisat / çev. Ç. Koç, Y. Madra, D. Eryar, K. Erçel, C. Özselçuk, A. Önder, K. Bodur. — İstanbul, 1996. — С. 57–58.
10. Fromm, E. Yaşama Sanatı / çev. A. Arıtan. — İstanbul: Artan Yayınevi, 1994. — С. 21–22.
11. Гегель Г. В. Ф. Избранные сочинения: в 2 т. Т. 1 / пер. с нем. Х. Демирхан. — Анкара: Çağ Matbaası, 1976. — С. 112–113.
12. Фромм Э. Здоровое общество. — Нью-Йорк: Rinehart & Winston, 1955. — 41 с.